



O‘ZBEKISTON SSRDA SOVET HOKIMIYATINING SOLIQ SIYOSATI

Feruz Boboyev¹

¹O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti “Tarixshunoslik va manbashunoslik” markazi boshlig‘i

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
sovet hokimiyati, soliq siyosati, O‘zbekiston SSR, soliq komissiyasi, kambag‘al, iqtisodiy holat, o‘rtahol qatlam, boy qatlam.	Maqolada O‘zbekiston SSRda sovet hokimiyatining amalga oshirgan soliq siyosati tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada tanlangan mavzuning dolzarbligi, soliq siyosatining huquqiy asoslari va amaliyoti bilan bog‘liq fikr-mulohalar berilgan..
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
советская власть, налоговая политика, Узбекская ССР, налоговая комиссия, бедняк, экономическое положение, средний класс, богатый класс.	В статье проанализирована налоговая политика советской власти в Узбекской ССР. Также в статье приведены размышления автора об актуальности выбранной темы, правовых основах и практике налоговой политики.
KEY WORDS	ABSTRACT
Soviet government, tax policy, Uzbek SSR, tax commission, poor, economic situation, middle class, rich class.	The article analyzes the tax policy implemented by the Soviet authorities in the Uzbek SSR. Also, the article provides opinions on the relevance of the chosen topic, the legal basis and practice of tax policy.

Kirish. Soliq siyosati har bir davlatning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘rta Osiyoda milliy respublikalar tashkil etilganidan hech qancha o‘tmay soliq siyosatini amalga oshirish uchun ishlar boshlab yuborildi.

Ta’kidlash lozimki, Turkiston ASSRda soliq tizimi bilan bog‘liq ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan [17, 27, 28, 29]. Shu bilan qatorda Turkiston ASSR tarixi bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarda ham soliq siyosatining ayrim jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan [26, 14, 30, 33, 18, 16, 31, 21, 1, 22, 20, 10, 11, 12]. Shuningdek, O‘zbekiston SSRda 1946–1991-yillarda olib borilgan soliq tizimi xususida tadqiqot amalga oshirildi [13]. Maqolaning xronologik davri

sifatida 1925-1929-yillar belgilandi, zero O‘zbekiston SSRning boshlanishi va 1930-yilda soliq tizimida o‘zgarish yuz berdi. Undan keyingi jarayonlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston SSRdagi soliq siyosati tahlil qilinadi. Asosiy manbalar sifatida tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va o‘sha davrning ilmiy maqolalari xizmat qilgan. Tadqiqotda soliq siyosatining turli jihatlari, jumladan uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida soliqqa oid qarorlar va hujjatlar tahlilidan foydalanilgan bo‘lib, bu orqali sovet davrida soliq siyosatining qanday ishlagani va uning aholi turmush tarziga qanday ta’sir ko‘rsatgani ochib berilgan.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Natijalar. Sovet hokimiyati tomonidan soliq siyosatini amalga oshirish bo'yicha bir necha qaror va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. O'zbekiston SSR tashkil etilganidan keyin ishlab chiqilgan soliqqa oid dastlabki hujjat yo'riqnoma edi. "1925/26 yillarda qishloq xo'jaligi solig'i holati to'g'risidagi" yo'riqnoma 1925-yil 7-mayda qabul qilingan, u 283 ta paragrafdan iborat [1; 1-100]. Mazkur yo'riqnomaning 1-qismi umumiy qoidalar (1-11 §), 2-qismi soliqqa tortiladigan obyektlar (12-34 §), 3-qismi soliqni hisoblash tizimi (35-56 §), 4-qismi mahalliy ehtiyojlar uchun chegirma (57-67 §), 5-qismi yagona qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha imtiyozlar (68-130 §), 6-qismi imtiyozlar va chegirmalar berish tartibi (131-144 §), 7-qismi soliqqa tortish va soliqni hisoblash tartibi (145-189 §), 8-qismi soliq to'lash shartlari va tartibi (190-209 §), 9-qismi ariza va shikoyatlarni berish va soliq komissiyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi (209-223 §), 10-qismi soliq organlari (224-231 §), 11-qismi soliq komissiyasi (232-244 §), 12-qismi ortiqcha soliq to'lovlarini qaytarish va hisobga olish tartibi (245-257 §), 13-qismi to'lovchilarning majburiyatlari va javobgarligi (258-259 §), 14-qismi qishloq xo'jaligi solig'i tushumlarini hisobga olish (260-272 §), 15-qismi qishloq xo'jaligi solig'idan olingan summalarni saqlash (273 §), 16-qismi qishloq xo'jaligi soliq hisoboti (274-281 §), 17-qismi shikoyatlarni ro'yxatga olish (282-286 §), 18-qismi hisobotlar, shikoyatlar va arizalar, imtiyozlar va chegirmalar (287-291 §), 19-qismi ish haqi varaqalari va kvitansiyasini hisobga olish (292-293 §)dan iborat edi.

Keyingi qaror va ko'rsatmalar asosan yuqoridagi yo'riqnoma asosida olib borildi. Jumladan, O'zbekiston SSR XKKning 1925-yil 23-iyundagi 12-sonli qarorida 1925/26-yillarda qishloq xo'jaligi solig'ini to'lash muddatlari belgilandi. Unda Tojikiston ASSRning Istravshan (O'ratepa) va Panjkent viloyatlari va O'zbekiston

SSRning Konimex tumani uchun yagona qishloq xo'jaligi solig'i to'lanishining 1-muddati 1925-yil 1-noyabrgacha – 35%, 2-muddati 1926-yil 1-yanvargacha 50%, 3-muddati esa 1926-yil 1-fevralgacha 15% etib belgilandi [3; 20].

Shuningdek, O'zbekiston SSR XKKning 1925 yil 28 iyuldagi 17-sonli qarori asosida BSSR va XSSRning O'zbekiston SSRga o'tkazilgan shaharlari va shahar tipidagi aholi manzillari (Zarafshon, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari hamda alohida qozoq tumani)dan daromad solig'i undirilmaganligi sababli ulardan yagona qishloq xo'jaligi solig'ini to'lashga jalb qilindi [3; 31].

O'zbekiston SSR XKKning 1925-yil 11-avgustdagi 19-sonli qarori bilan O'zbekiston SSR va Tojikiston ASSRning istalgan hududida 1926-yil 1-yanvarga qadar soliqlar, bojlar va yig'implar to'lovlarini Buxoro tangasi va tillasida qabul qilish belgilandi. Bu muddat o'tgandan keyin tanga va tilla hech qanday to'lovlarda qabul qilinmaydigan bo'ldi [3; 35].

Ta'kidlaydigan jihati shuki, qonunchilik ko'p holatlarda amalda qo'llanmay, suiste'molchiliklar aholi uchun turli iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Soliq amaliyoti. O'zbekiston SSR tashkil etilgandan so'ng boshqa sohalar qatorida iqtisodiy tarmoqlarda ham o'zgarishlar boshlandi. 1925-yilning 8-yanvarida respublika partiya Markaziy qo'mitasining mas'ul kotibi Lyapin imzosi bilan Qashqadaryo viloyat firqa qo'mitasiga jo'natgan maktubida shunday degan edi: "Ushur, zakot-savaim soliqlarini to'lashning oxirgi muddati tugadi. Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda yig'im bo'yicha berilgan topshiriq 80 foizga bajarilgan. Samarqand va Farg'ona viloyatlarida bu ko'rsatkich 100 foizga yetkazildi. Sizlarni so'nggi marta ogohlantiramiz: nima bo'lishidan qat'i nazar, soliq yig'imi 15 yanvardan kechiktirmasdan 100 foiz ado etilishi kerak" [19; 125].



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

1925-yil 30-aprelda Qashqadaryo viloyat partiya qo‘mitasi ijroiya byurosining majlisida viloyatda qishloq xo‘jaligi solig‘i joriy etilayotganligi aytiladi. Viloyatda mazkur soliqni joriy etmaslik bo‘yicha takliflar berilgan. Markaz hech kanday soliq to‘xtatilmaligi haqida ko‘rsatma beradi. Beshkent tumani firqa qo‘mitasining mas‘ul kotibi Aliyev bu ko‘rsatmalarga e‘tiroz bildirganligi uchun vazifasidan olib tashlanadi [19; 125].

1925-yilning 10-dekabrida respublika partiya markaziy qo‘mitasidan Qashqadaryo viloyat firqa qo‘mitasiga navbatdagi ogohlantiruvchi talabnoma yuboriladi. “Soliq yo‘nalishi bo‘yicha bosimni kuchaytirish yuzasidan bergan ko‘rsatmalarimizga qaramay, viloyat ijroiya qo‘mitasida ijobiy siljish kuzatilmayotir. Yana bir bor ogohlantiramiz, birinchidan, qishloq xo‘jalik solig‘ini yig‘ishda ommaviy majburiylikni oshirish, vakillarga soliq to‘lamaganlar uchun qat‘iy choralar ko‘rish topshirilsin, ikkinchidan, shaharlardagi, qishloqlardagi savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchilar qat‘iy siquvga olinsin”, deyiladi [19; 127]. Soliq yig‘ishda o‘tkazilayotgan zug‘um viloyatda ko‘pgina noxush voqealarni keltirib chiqaradi. Moliya nazoratchilari, turli idoralardan qishloqlarga yuborilgan vakillar o‘zboshimchalik bilan yo‘l tutib, aholiga o‘zlari bilganlaricha yangi soliqlar ham solishdan qaytmaganlar, soliqqa tortmaslik uchun pora talab qilganlar [19; 127].

1925-1926 yillarda O‘rta Osiyoda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, og‘ir soliq va majburiyatlar aholining tinka-madorini quritib bordi. Buning ustiga Turkiston fronti askarlarining aholiga nisbatan yuritgan talonchilik siyosati ularning battar xonavayron bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Turkiston fronti harbiy okrugi moliya nazorati boshlig‘i Ivanovning 1925-yil 11-aprelda SSSR Moliya xalq komissarligining Moliya-nazorat boshqarmasi o‘rinbosari Pussepga yuborgan

“Bosmachilikning sabablari, ularga qarshi kurashning yomon ahvoli, mahalliy aholiga qarshi zo‘ravonlik haqida” nomli hisoboti sovet hokimiyatiga qarshi kurashning sabablariga yanada aniqlik kiritadi. Hisobotda qurolli harakatning sabablaridan biri Turkiston fronti harbiylarining aholiga zo‘ravonliklari va talonchiliklari deb ko‘rsatiladi. Ivanovning fikricha, agar Turkiston frontining harbiy va iqtisodiy hayotidagi sharoitlari keskin o‘zgarmasa, u holda bu mayda kurash tubsizlikni ifodalaydigan, uni hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydigan inson hayoti va davlat mulkidagi qurbonlar ko‘lamini yana-da uzoq davom etishiga olib kelishi mumkin [8; 52].

Shuningdek, shu davrda qizil armiyaning 13-korpusi tomonidan ham talonchiliklar va zo‘ravonliklar amalga oshirilgan. 13-korpus askarlari uchun otlar yetishmasligi sababli aholining qo‘lidan majburan va bepul olib qo‘yilgan [8; 52]. Bundan tashqari, qizil armiyaning oziq-ovqat bilan ta‘minlash masalasi ham yetarli bo‘lmaganligi sababli aholidan majburan olingan. Bu jarayonlar Ivanovning hisobotida keltirilganidek, bu 4 yillik samarasiz kurash ko‘plab aholini jabrdiydaga va Sharqiy Buxoroni cho‘lga aylantirdi. Shuningdek, bir qancha qishloqlarning xarobalari bu yerda yaqin vaqtgacha hayot mavjud bo‘lganligini ko‘rsatar edi [8; 53].

Qizil armiyaning ta‘minot tizimida oziq-ovqat va yem-xashakning yetishmasligi natijasida aholiga nisbatan rekvizitsiya (mol-mulkni, qiymatini to‘lash sharti bilan, majburiy ravishda davlat ixtiyoriga olish) qo‘llandi [8; 86, 109]. Natijada Turkiston harbiy okrugining aholidan olingan mahsulotlar hisobiga qarzdorligi oshib ketgan va buni qaytarish maqsadida aholidan ko‘plab norozilik shikoyatlari qayd etilgan [8; 109]. Turkiston fronti a‘zosi Pavlovskiyning 1925-yil 18-avgustda Inqilobiy Harbiy Kengash va O‘rta

Osiyo byurosi vakiliga yuborgan hisobotida keltirilishicha, Tojikiston ASSR, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida joylashgan armiyaning ta'minotini mahalliy resurslar hisobiga qoplab bo'lmashligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qurolli harakatni butunlay tugatish uchun emas balki keskin siyosiy vaziyatni biroz yumshatish uchungina armiyaning ta'minotiga zarur bo'lgan oziq-ovqat faqat shu joyning aholisidan olingan soliqlar hisobiga emas balki chetdan ham keltirilishi kerak edi [8; 97-100].

1-jadval. O'zbekiston SSRda soliq miqdorining oshib borishi

№	Toifa	1925/26	1926/27	O'sish
1	Kambag'al xo'jalik	1,7 so'm	3,2 so'm	1,5 so'm
2	O'rtahol xo'jalik	21,7 so'm	33,3 so'm	11,6 so'm
3	Boy xo'jalik	45,6 so'm	97 so'm	51,4 so'm

1925/26 xo'jalik yilida O'zbekiston SSRda kambag'al dehqon qatlamiga mansub bitta xo'jalikdan o'rtacha 1,7 so'm, o'rtahol xo'jalikdan 21,7 so'm, badavlat xo'jalikdan 45,6 so'm qishloq xo'jaligi solig'i undirilgan bo'lsa, 1926/27 xo'jalik yilida bu miqdor kambag'al xo'jaliklar uchun o'rtacha 3,2 so'mni, o'rtahol xo'jaliklar uchun 33,3 so'mni, badavlat xo'jaliklar uchun 97 so'mni tashkil qildi [25; 76].

Qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha ro'yxatga olish ma'lumotlari 1926/27-yilga nisbatan 1927/28-yilda soliqqa tortiladigan obyektlar sezilarli o'sgan. Bu holatni O'rta Osiyo respublikalari kesimida tahlil qilinsa Qirg'iziston AO birinchi o'rinda bo'lib, 37,3 foizga, Turkmaniston SSRda esa 19,7 foizga, O'zbekiston SSRda 16,7 foizga va Tojikiston ASSRda 13,6 foizga o'sgan [6; 36].

Ko'plab manbalar va adabiyotlar tahlili sovet hokimiyatining soliq siyosatidagi zo'ravonliklar 1927-yildan boshlab yana-da kuchayib

Soliq amaliyotida doimiy ravishda to'lovlar oshib borganligini ko'rish mumkin. Masalan, 1926/27-yillarda 1925/26 yilga nisbatan soliq obyektlari O'zbekiston SSRda 21,2%, Turkmaniston SSRda 22,2 %, Qirg'iziston ASSRda 22 %, va O'rta Osiyo respublikalari bo'yicha 22,1 %ga o'sgan [6; 37]. Shuningdek, orttirilgan soliqning katta qismini dehqonlarning boy va o'ziga to'q dehqon xo'jaliklari zimmasiga yuklatildi. Shu bilan bog'liq ravishda soliqqa tortishning daromadga nisbatan progressiyasi ham keskin oshdi.

borganligini tasdiqlaydi. Yagona qishloq xo'jaligi solig'ini undirish bo'yicha 1927-yil 27-martda O'zbekiston SSR XKKning 21-sonli qarori bilan tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritildi [4; 30]. Unga ko'ra:

1) amaldagi tubdan o'zgarmagan, progressiv daromad solig'i tamoyili saqlab qolindi. Tog'li Badaxshon viloyati (Pomir)dan tashqari O'zbekiston SSRning shu paytgacha ozod qilingan viloyatlari (Surxondaryo okrugi va Tojikiston ASSR) 1927/28 yillar uchun yagona qishloq xo'jaligi solig'iga tortildi;

2) qishloq xo'jaligining bog'lar, uzumzorlar, sabzavotzorlar, iste'mol xarakteridagi poliz ekinlari, sug'oriladigan yerlardan olinadigan daromadning o'rtacha stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi;

3) qishloq xo'jaligining ikkilamchi tarmoqlaridan, masalan, pillachilik, parrandachilik va boshqa tarmoqlardan faqat tijorat xarakteriga ega bo'lgan sohalarda soliq solindi, bu tarmoqlarni



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

solliqqa tortish vakolati mahalliy ijroiya qo‘mitasiga berilgan;

4) qorako‘l qo‘ylarining rentabelligi imtiyozli asosda 1927/28-yildan qishloq xo‘jaligi solig‘iga jalb etildi [4; 32];

5) qishloq xo‘jalik mashinalari va jihozlarini yoki yerni ijaraga berishdan topilgan daromad soliqqa tortilgan. Bunda daromadning 40 foizidan 60 foizigacha, ayrim hollarda esa 75 foizigacha bo‘lgan qismi soliq sifatida olingan [25; 77].

Qonunchilikda soliq solinadigan daromad miqdorining eng kam miqdordan oshmagan dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi solig‘idan ozod qilindi. O‘zbekiston SSRda soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori bir yoki ikki kishidan iborat xo‘jalik uchun 90 so‘m, uch-to‘rt kishidan iborat xo‘jalik uchun 100 so‘m, besh yoki undan ortiq kishidan iborat xo‘jalik uchun 110 so‘m etib belgilangan [25; 77]. Lekin bu mezon ko‘p holatlarda buzildi. Bu holat faqat O‘zbekiston SSR uchungina xos jihat bo‘lmay, balki barcha O‘rta Osiyo respublikalarida og‘ir kechgan jarayondir.

1927-yilda kambag‘al dehqonlarning soliqlarga munosabatida salbiy kayfiyat kuchaydi. Chunki oldingi yilda soliqdan ozod qilingan kambag‘al xo‘jaliklar o‘zini birmuncha tiklab olgani munosabati bilan ularga soliq solingani noroziliklarga sabab bo‘ldi. Toshkent, Samarqand va Farg‘ona oblastlarining ayrim rayonlaridan shunday holatlar bo‘yicha mahalliy ijroqo‘mlarga norozilik arizalari berilgan. Masalan, Samarqand oblastining Kattaqo‘rg‘on uyezdidan 238 ta ana shunday ariza kelib tushgan [9; 150-151].

1927-1929-yillarda mintaqada soliqlarning umumiy o‘shishi:

- soliqlar haddan ziyod ko‘paytirib borilgan. Bu holat jamiyatning barcha qatlamlariga xos jihat edi. Turkmaniston SSRning Taxtabozor rayonida soliqlarning o‘shishi bo‘yicha eng yuqori

ko‘rsatkich qayd etildi. Bu 1927-yilga nisbatan soliqlar 100 dan 300 foizgacha o‘ydi. 1927-yili 47 ming rubl to‘lagan Taxtabozor rayonidagi 149 ta dehqon xo‘jaliklariga 1928-yilgi kampaniyada 94 ming 134 rubl soliq solindi. Taxtabozor rayonidan tashqari boshqa hududlarida ham vaziyat juda murakkab holatda edi [23; 482];

- boy, mulkdor qatlamlarga yuqori stavkada soliq belgilangan. 1927-yilga nisbatan 1928-yilda 80 foiz ko‘proq soliq solindi [23; 482];

- soliqlarni belgilashda doim ham adolatli tartib bo‘lmagan. Soliq obyektlari noto‘g‘ri xatlov qilingan. Masalan, Qashqadaryo okrugida bir qorako‘l yetishtiruvchi boy-chorvadorga ming rubldan ko‘proq, G‘uzordagi yana bir 1600 ta qorako‘l qo‘yi bo‘lgan boy-chorvadorga 3300 rubl soliq solingan [23; 441, 480-481];

- O‘rta Osiyoda 1928-yil sentyabr oyida soliq kampaniyasida zo‘ravonlik yanada kuchaydi. Birinchidan, shu davrda O‘zbekiston SSRning ba‘zi joylarida soliqlarning umumiy o‘shishi kambag‘allarga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Chunki ko‘p hollarda sovet hokimiyatining sinfiy yondashuviga asosan soliq to‘lash borasida kambag‘allarga ayrim imtiyozlar berilar edi. Bunday imtiyozlar esa boshqa qatlamlardan soliqni ko‘proq undirib olinishi hisobiga qoplanar edi. Biroq kambag‘allarga 1927-yilga nisbatan 2-3 baravar ko‘proq soliq solindi. Ba‘zi hollarda avvalgi soliq kampaniyasida ozod qilingan, umuman kuchi yetmagan xo‘jaliklarga ham soliq solindi va to‘lashga majbur qilindi. Soliqlar belgilanganidan yuqori darajada talab qilindi. Kambag‘allarga ham soliq solish ko‘paytirilgan. Ko‘pgina hollarda, kambag‘allar chorvalarini sotishga yoki birinchi muddatni to‘lash uchun qarz beruvchidan pul olishga majbur bo‘ldi. Tizimdagi adolatsizliklar, korrupsiya va soliqlarning haddan tashqari ko‘payishi natijasida boy, mulkdorlardan tashqari, o‘rtahol va kambag‘al dehqonlar ham ushbu

kampaniyaga qarshi ochiqchasiga qattiq noroziliklarini bildirishdi [23; 480-481]. Ikkinchidan, soliq siyosati 1928-yildan boshlab nafaqat qishloq aholisiga balki savdo va hunarmandchilikda ham o‘zining kuchli salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Soliq kampaniyasidan norozilik sababli katta shaharlardagi yirik savdo korxonalarining yopilishi, patentsiz savdo qilishi, korxonalarini tugatayotgan ba‘zi savdogarlar sherikliklarga birlashishi yoki hunarmandlar firmasi ostida savdo qilishi va soliq to‘lovlarini jamoaviy ravishda rad etish hollari bo‘lgan (Toshkent, Samarqand va Frunze, O‘sh) [23; 227, 230]. Soliq siyosatidan norozi bo‘lib hukumatga yo‘llangan shikoyatlardan birida shunday deyiladi: “Kattaqo‘rg‘on shahrida har xil ulkan soliqlardan kishilar qiynalmoqdalar, ayrimlari savdo ishlarini to‘xtatdilar... qolgan 10 savdogar ham o‘z ishlarini to‘xtatish arafasida turibdi” [15; 108]. Xususiy savdoga qo‘yilgan bunday cheklolar, katta savdo majmualarining yopilishi aholi orasida ishlab chiqarish mahsulotlariga bo‘lgan talabni va narxlarning keskin oshib ketishiga olib keldi;

- qayta soliqqa tortish ham tizimdagi adolatsizliklardan biri bo‘lib, bu ham majburiy ravishda amalga oshirildi. 1928-yilning sentyabr oyida Chorjo‘y okrugining Eski Chorjo‘y va Farab rayonlari aholisidan qayta soliqqa tortish natijasida 100 ming rubl undirib olindi. Xuddi shunday holat Toshhovuz okrugi, Marv va Ashxobod rayonlarida ham sodir bo‘ldi. Ashxobod rayonlarida qayta soliqqa tortish bo‘yicha 100 tagacha shikoyat kelib tushdi [23; 482], shuningdek, 1929-yilda ham O‘zbekiston SSRning bir qator rayonlarida ham qayta soliqqa tortish keskin norozilikka sabab bo‘ldi [23; 329, 430]. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

- 1928-yilgacha to‘langan soliq miqdori faqat ko‘chmas mulk farqlariga bog‘liq edi, ya‘ni yer miqdori, yetishtirilgan ekin turlari va dehqon

xo‘jaligidagi chorva mollari soni inobatga olinar edi. Biroq 1928-yildan boshlab qishloq xo‘jaligidan tashqari tushumlarga, ya‘ni daromadga ham soliq solindi [24]. Bu davrdagi shaxsiy soliqqa tortish boshqa barcha to‘lovlar (o‘z-o‘zini soliqqa tortish, suv solig‘i, madaniy-ma‘rifiy ehtiyojlar uchun to‘lovlar, majburiy sug‘urta to‘lovlari va boshqalar)ning bir necha baravar ko‘payishiga olib keldi, aholi majburiyatlarni bajarish uchun ishlab berishga va to‘lovlarni natura shaklida to‘lashga majbur qilindi [24].

- soliqqa tortishda ko‘p hollarda, qishloq sovetlari va ro‘yxatga olish komissiyalari xodimlari yashirin soliq solish obyektlarini aniqlashda nafaqat ishtirok etadilar, balki ular o‘zlari ham kampaniyaning buzilishiga (soliq obyektlarini yashirishda, hatto ba‘zi joylarda pora evaziga yordam berilgan) hissa qo‘shadilar. Mahalliy sovetlar va ro‘yxatga olish komissiyalari faoliyatidagi ko‘plab kamchiliklar boy, mulkdor, o‘rtahol toifalar bilan bir qatorda sovetlarning asosiy tayanchi bo‘lgan kambag‘allar orasida ham noroziliklarni kuchaytirdi [23; 394-396].

- 1928-yilda Turkmaniston SSRda suv solig‘ining joriy etilishi edi. Turkmaniston SSRning bir necha rayonlarida 1927-yil dekabrda suv solig‘ini yig‘ish kampaniyasi munosabati bilan norozilik yuzaga keldi. Ayrim dehqonlar soliqni umuman to‘lamaslik yoki Eronga ko‘chib o‘tishga qaror qilgan. Ayniqsa suvga soliq solishda tabiiy ofatlarning oqibatlarini inobatga olinmasligi ham tez-tez noroziliklarga sabab bo‘ldi [23; 680]. Turkmaniston SSRda amaldorlar suv solig‘ini to‘lashdan bosh tortganlarga bu pullar yangi temir yo‘l qurishga, Angliyaga qarshi urush olib borishga va rus muhandislariga maosh to‘lashga sarflanadi, deb tushuntirilgan. Rasmiylar tomonidan taklif qilingan ushbu choralar soliq to‘laydigan aholi orasida katta norozilikka sabab bo‘ldi [2; 503].

Muhokama va xulosa. Shunday qilib, sovet hokimiyati soliq siyosatining amaliyotida davrning og‘ir va murakkab sharoiti inobatga olinmadi. Soliq miqdori haddan ziyod yuqori bo‘lib, bu ham yetmaganidek, to‘lov muddati kechiksa, yana qo‘shimcha to‘lovlar qo‘shilgan. Bundan tashqari, to‘lamasa yoki to‘lash imkoni yetmasa, ularga turli muddatlarga qamoq va surgun kabi jazo choralari

qo‘llangan. Soliq siyosatidagi majburiylik aholi orasida katta qarshilikka uchradi. Soliq siyosati bilan bog‘liq keskinlik 1927-yildan boshlanib keyingi yillarda yanada oshib bordi. Shuning uchun ham 1929-yildan boshlab O‘rta Osiyoning barcha respublikalarida sovet hokimiyatiga qarshi qo‘zg‘olonlar yana avj olib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Komolov D. The revolutionary tribunal and its role in the judicial system of the Turkestan ASSR // *Theoretical & Applied Science*, 2020. – Issue 07, Volume 87. – PP.312-320.

2. Teichmann Ch. Canals, cotton, and the limits of de-colonization in Soviet Uzbekistan, 1924–1941 // *Central Asian Survey*. 2007. 26 (4). – PP. 499-519.

3. O‘zbekiston MA, R-837-fond, 1-ro‘yxat, 12-yig‘majild.

4. O‘zbekiston MA, R-837-fond, 5-ro‘yxat, 603-ish.

5. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2425-ish.

6. O‘zbekiston MA, R-9-fond, 1-ro‘yxat, 3131-ish.

7. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-837-fond, 1-ro‘yxat, 12-yig‘majild, 35-varaq.

8. RDNA, 25895-fond, 1-ro‘yxat, 1649-ish.

9. Ахмедов Д. Ўзбекистонда деҳқон хўжаликларига қарши совет ҳукумати иқтисодий босимининг кучайиши (1927–1929 йиллар) // *Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations*. 2021. № 5. Б. 150-151.

10. Бобоев Ф.С. Ўзбекистон ССРда совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат (1925 – 1935 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. Тошкент, 2018.

11. Бобоев Ф.С. Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат тарихи (1925-1935 йиллар). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. Тошкент, 2022.

12. Бобоев Ф.С. Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат тарихи (1925-1935 йиллар). – Тошкент: Фан, 2024.

13. Дусчанов Р. Ўзбекистонда совет давлатининг солиқ сиёсати (1946-1991 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022.

14. Илюшин А., Капеева Г. Новая экономическая политика советского государства на территории Семиречья // *Вестник Кузбасского государственного технического университета (Вестник КузГТУ)*. 2005.

15. Инатов М. Хатларда битилган тарих ва тақдир: Ўзбекистон фуқароларининг хатлари тарихий манба сифатида (XX аср 20-йилларининг иккинчи ярми). – Тошкент.

16. Лысенко Ю.А., Омурова Ж.О. Степной край и Туркестан в условиях политики «Военного коммунизма» и ее последствий (1918–1922 гг.) // *Society and Security Insights*. 2018;

17. Набиев Ф.Х. К характеристике продовольственного положения в Туркестане 1921-1924 годов // *Общественные науки в Узбекистане*. 1994. № 8. С. 30-33;

18. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. Тошкент: Iqtisod-moliya, 2009.

19. Равшанов П. Қизил салтанат исқанжасида. Тажовуз (Хужжатлардаги тарих). Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2011.

20. Ражабов Қ., Раҳматов М. Туркистонда совет ҳокимиятининг иқтисодий сиёсати ва



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

очарчилик даҳшатлари (1917-1924 й.) – Тошкент: Фан, 2022.

21. Рахматов М. Туркистондаги очарчилик ва унинг оқибатлари (1917-1924 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019.

22. Режаббоев Н. Туркистонда озик-овқат сиёсати (1917-1924 йиллар). Тошкент: Turon-iqbol, 2021.

23. “Совершенно секретно”: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т. 6. 1928 г. – Москва, 2002.

24. Тагаев М. Социальная и религиозная ксенофобия как инструмент политики советского государства. История и неизвлеченные уроки (1929-1936 гг.). На примере материалов юга Кыргызстана // <https://www.pluralism.ca/wp-content/uploads/2018/04/Myktar-Taгаev-Russian-Apr2018-FINAL.pdf>.

25. Тошматов Ш. XX асрнинг 20-йилларида Ўзбекистон кишлок хўжалигида совет давлатининг солиқ сиёсати // Ўтмишга назар. 2021. № 8.

26. Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. Тошкент: Шарк, 2000.

27. Умирзакова М.Р. Законоположения о денежных налогах и сборах налоговых органов в Туркестане // Ўтмишга назар. 2022. № 7. С. 77-80.

28. Умирзакова М.Р. Туркистон АССРда иқтисодий ҳолат ва солиққа тортиш масалалари // Ўтмишга назар. 2023. № 6. – С. 72-78.

29. Умирзакова М.Р. Туркистонда солиқ сиёсати (1917-1924 йй) // “ЎЗМУ хабарлари”. 2018. № 1. – Б. 65-67.

30. Эшчанова И.К. Продразверстка и узбекское дехканство // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: История России. 2007. № 2 (8). – С.105-110.

31. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: O‘zbekiston, 2019.

32. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Ташкент: Шарк, 2000.

33. Хайдаров И. Ўзбекистонда иқтисодий кенгашлар фаолияти (1917-1934 йиллар). – Тошкент: Абу матбуот-консалт, 2008.